

Товарлар yetkazib va o'rnatib berish xizmati bo'yicha

SHARTNOMA

2022 y. « 14 » 12

5-7-86-440/2022-Son

Kattaqo'rg'on t.

Keyingi o'rinlarda "Ijrochi" deb nomlanuvchi "Baxora KBM " MCHJ Ustav asosida harakat qiluvchi rahbari A Ishmuxamdiv orqali bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Davlat buyurtmachisi" deb ataladigan Kattaqo'rg'on tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi nomidan o'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari I.Nurmurodiv ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Ijrochi mazkur shartnomaga ilova qilinayotgan va uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadigan tafsilotli ro'yxatda belgilangan miqdorda va muddatda tovar mahsulotni (keyingi o'rinlarda "tovar" va xizmatlar deb yuritiladi) tayyorlab, yetkazib va o'rnatib berish majburiyatini oladi, Davlat buyurtmachisi esa yetkazib va o'rnatib berilgan tovarlar haqini belgilangan muddatda to'lanishini ta'minlash majburiyatini oladi.

1.2. Ijrochi Davlat buyurtmachisi bilan kelishgan holda Tovarni muddatidan oldin jo'natishga haqli. Muddatidan oldin yetkazib va o'rnatib berilgan Tovar keying davrlarda yetkazib berilishi lozim bo'lgan tovarlar miqdoriga kiritiladi.

1.3. Shartnoma bo'yicha yetkazib va o'rnatib berilishi lozim bo'lgan tovarlarning tafsilotli ro'yxati.

Kattaqo'rg'on tuman Qaradaryo MFY binosining qurulish ob'yekti bo'yicha

	Наименование работ и материал	Единица измерения		цена	Без НДС	НДС	С НДС итого
1	Цемент М400	Тонна	11	679250	7471750	1120762,5	8592512,5
2	Щебен, красный песок, черный песок	М3	72	90250	6498000	974700	7472700
3	ОБЛИЦОВКА ПОТОЛКА ДЕКОРАТИВНЫМИ ПЛАСТИКОВЫМИ ПАНЕЛЯМИ С УСТРОЙСТВОМ С КАРКАСА БЕЗ ОТНОСА ОТ ПОТОЛКА	М2	200	27075	5415000	812250	6227250
4	ЭЛЕКТРООСВЕЩЕНИЕ, ПРОВОДА (165)ПМ, ШИТ (1)ШТ КОМ-Т, Светильник круглый LED PANEL (AKRIL) 24 W PRIME (24)ШТ. РОЗЕТКА (8)ШТ И ВЫКЛЮЧАТЕЛ (8) ШТ	Ком-т	1	7600000	7600000	1140000	8740000
5	ОКРАШИВАНИЕ ПОВЕРХНОСТЕЙ СТЕН ВОДОЭМУЛЬСИОННЫМИ СОСТАВАМИ	М2	175	16150	2826250	423938	3250188
6	УСТАНОВКА И СТОИМОСТЬ ДВЕРКХ БЛОК И ОКОННЫХ БЛОКОВ ИЗ ПЛАСТИКОВЫЕ С ДВОЙНОЙ ДВУХКАМЕРНЫЙ СТЕКЛОПАКЕТАМИ	М2	27	593750	16031250	2404687,5	18435937,5

	ОСП12-15(10ШТ)						
7	УСТАНОВКА ДВЕРНЫХ БЛОКОВ ИЗ МДФ	M2	14	427500	5985000	897750	6882750
8	УСТРОЙСТВО ПЛИНТУСОВ ИЗ ПЛИТОК КЕРАМИЧЕСКИХ	M2	32	71250	2280000	342000	2622000
					54107250	8116087,5	62223129

2. Tovarining butlanishi va sifati

2.1. Yetkazib va o'rnatib berilayotgan tovarlar o'z sifati va butlanishi jihatidan Davlat GOST standartlari talablariga javob berishi shart.

3: Shartnoma bahosi va so'mmasi

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha yetkazib va o'rnatib berilayotgan tovarlarga taraflarning kelishuviga muvofiq shartnomada belgilangan narxlarga muvofiq haq to'lanadi.

3.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yetkazib va o'rnatib berilishi lozim bo'lgan tovarlarning umumiy so'mmasi 62 223 129 (Oltmish ikki million ikki yuz yigirma uch ming bir yuzi yigirma to'qqiz) so'mni tashkil etadi.

4. Markirovka, idishlar va o'rash tartibi

4.1. Tovarlar tegishli davlat standartlari va texnik talablariga javob beradigan va tashish hamda saqlash jarayonida ularning saqlanishini taminlaydigan (idishturi, konteyner, yashik, kartonqutivah.k) idishlariga joylashtirilishi lozim.

5. Hisob-kitob qilish tartibi

5.1. Yetkazib va o'rnatib berilayotgan tovarlar uchun hisob-kitoblar quyidagi tartibda amalga oshiriladi :shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, g'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 bank ish kuni ichida "Davlat buyurtmachisi" shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 25 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi. "Ijrochi" avans mablag'lari o'zining tegishli hisob varag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 10 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

6. Tovarni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish tartibi

6.1. Yetkazib va o'rnatib berilayotgan tovarlarni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish mahsulotlar (tovarlar)ni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish tartibi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.2. Tovarining miqdori va sifati bo'yicha kamchiliklari aniqlangan holda, qabul qilish natijalari dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, g'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi

8. Taraflarning mulkiy javobgarligi

8.1. Tovarlarini tanlab olmaslik, shuningdek ijrochi shartnomada belgilangan muddatda (davrd) ularni yetkazib va o'rnatib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik

uchun davlat buyurtmachisi ijrochiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

8.2. Agar yetkazib va o'rnatib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalar (etalonlar) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, davlat buyurtmachisi tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, ijrochidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan so'mmani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima ijrochidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

8.3. Tovarlarni yetkazib va o'rnatib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmaganda ijrochi davlat buyurtmachisiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy so'mmasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

8.4. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun ijrochi davlat buyurtmachisiga bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlarni qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin ijrochi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi ijrochidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

8.5. yetkazib va o'rnatib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun davlat buyurtmachisi ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov so'mmasining 0.4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov so'mmasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

8.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarlik choralari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

9. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

9.1. Ushbu shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

9.2. Shartnoma faqat taraflarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin.

10. Nizolarni hal etish tartibi

10.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radilar.

10.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. Tomonlar sudga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi sudida ko'rib chiqiladi.

11. Fors-major

11.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va buholatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmaz kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

12. Korrupsiyaga qarshi shartlar

12.1. Tomonlar:

12.1.1. Tomonlar ularning affilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzulishiga olib keladigan va yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklamay) pora berish va berishni va'da qilish, tamagirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-xarakatlari harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

12.1.2. Tomonlar, ularning kaffilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga x'izmatlarini beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarini harakatsizliklar bajarilishini taminlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

12.2. Tomonda ushbu shartnomaning 12.1-bandagi talablarni buzush sodir etganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubxalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarning normalari buzulganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa-amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

13. Qo'shimcha shartlar

13.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

13.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega deb hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

14. Tomonlarning yuridik manzillari va bank rekvizitlari:

IJROCHI:	DAVLAT BUYURTMACHISI:
"Baxora KBM " MCHJ	Kattaqo'rg'on tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi
Manzil: Kattakurgon shahar Oybek kuchasi 3	Manzil: Kattaqo'rg'on t., M.Ulug'bek MFY A.Navoiy ko'chasi 4-uy
H/R 202080006380029269001	h/r 100022860182157011402259007
Bank nomi: Hamkorbank ATB Kattaqurg'on shahar filali	STIR: 207317829
MFO: 01037 STIR: 305226290	Moliya vazirligi Yagona g'azna hisobvarag'i: 23402000300100001010
Tel.: +998 93 343 66 88	Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassasining Kattaqo'rg'on filiali (KBM)
	MFO: 00014 STIR: 201122919
Rahbar:  A.Ishmuxamadov	Rahbar:  I.Nurmurodov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

LY0503213881

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Mahxsulot sotib olish QORADARYO MFY Baxora KVM 1000
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: KATTAQO'RG'ON TUMAN MAXALLA VA OILANI QULLAB QUVVATLASH BO'LIMI tomonidan 14.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Kattaqo'rg'on tuman.
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:



M.O.RUSTAMOV

14.12.2022

17.01.2018

Yagona Oyna Markazi

594111



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"BAXORA KBM" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning - tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan boshqa to'liq nomi)

"BAXORA KBM" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

17.01.2018

566362

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

305226290

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahri, OYBEK 3

Guvohnoma:

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahri, YAGONA
DARCHA MARKAZI

lomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)

